



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **O'QITUVCHILARDA MULOQOTNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK TAHLILI**

**Jaqsimuratova Ziyada Shamurat qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Maqolada o'qituvchikarda muloqotni boshqarish jarayonining psixologik jihatlari keng yoritiladi. Ushbu maqolada o'qituvchilarining muloqot jarayonida o'z-o'zini boshqarish darajasi M. Snayder metodikasi yordamida o'rganildi va pedagoglarning kommunikativ faolligi, moslashuvchanligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy sezgirligi aniqlanadi. Tadqiqot original va modifikatsiya qilingan variantlar bo'yicha amalga oshirildi va o'qituvchilarning fan yo'nalishi bilan bog'liq psixologik xususiyatlari tahlil qilindi. Natijalar o'qituvchilarning hissiy barqarorligi, kommunikativ moslashuvchanligi va konflikt vaziyatlarini boshqarish qobiliyati haqida ilmiy asosli xulosalar beradi.

**Kalit so'zlar:** o'z-o'zini boshqarish, Snayder metodikasi, muloqot, pedagogik psixologiya, emotsional barqarorlik, tadqiqot, kommunikativ nazorat, konstruktiv aloqa, kasbiy muvaffaqiyat, kompetentlik.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УПРАВЛЕНИЯ КОММУНИКАЦИЕЙ У ПЕДАГОГОВ**

**Жаксымуратова Зияда Шамурат кизи**

Каракалпакский государственный университет имени Бердака, магистрант

### **Аннотация**

В статье подробно раскрываются психологические аспекты управления общением у педагогов. В данном исследовании уровень саморегуляции учителей в процессе коммуникации был изучен с использованием методики М. Снайдера, а также выявлены их коммуникативная активность, адаптивность, эмоциональная устойчивость и социальная чувствительность. Исследование проводилось по оригинальному и модифицированному вариантам методики, проанализированы психологические особенности педагогов в зависимости от их предметной специализации. Полученные результаты позволяют сделать научно обоснованные выводы об эмоциональной устойчивости учителей, их коммуникативной гибкости и способности управлять конфликтными ситуациями.

**Ключевые слова:** саморегуляция, методика Снайдера, коммуникация, педагогическая психология, эмоциональная устойчивость, исследование, коммуникативный контроль, конструктивное взаимодействие, профессиональный успех, компетентность.

## **PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF COMMUNICATION MANAGEMENT IN TEACHERS**

**Jaqsimuratova Ziyada Shamurat qizi**

Berdakh Karakalpak State University, Master Student

### **Abstract**

The article provides an extensive analysis of the psychological aspects of managing communication among teachers. In this study, teachers' levels of self-regulation in the

communication process were examined using M. Snyder's methodology, and their communicative activity, adaptability, emotional stability, and social sensitivity were identified. The research was conducted using both the original and modified versions of the methodology, and the psychological characteristics related to teachers' subject specialization were analyzed. The results offer scientifically grounded conclusions regarding teachers' emotional stability, communicative adaptability, and their ability to manage conflict situations.

**Keywords:** self-regulation, Snyder's methodology, communication, pedagogical psychology, emotional stability, research, communicative control, constructive interaction, professional success, competence.

O'qituvchilik kasbi bu qadimiy kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati insoniyat jamiyatida hech ham kamaymaydi. O'qituvchilik kasbi bu o'tkinchi kasb emas. Insoniyat jamiyati o'zi asrlar davomida ottirgan bilimlarini, malakalarini avloddan - avlodga yetkazib bermaganda, u hech qachon rivojlanmas edi. Demak, o'qituvchilik kasbi - bu obyektiv reallik bo'lib, jamiyat uchun zaruriy hodisa hisoblanadi va uning qadri hech ham so'nmaydi. Shu bilan aytish kerakki hozirda kompyuterlashtirish, distantsion o'qitish, elektron ma'ruzalar, baholashning boshqa ko'rinishlari o'qituvchi faoliyatini o'ziga xos tarzda yanada kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda [1;90].

Faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida biz M.Snaydning Muloqot jarayonida o'zini boshqarish darajasini aniqlash metodikasidan foydalandik.

Muloqot odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi [2;5].

Muloqot jarayonida shaxsning o'zini boshqarish qobiliyati uning professional faoliyati, auditoriya bilan ishlash va konflikt vaziyatlarini konstruktiv hal qilish imkoniyati bilan bog'liq. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini boshqarish darajasi yuqori bo'lgan shaxslar stressli vaziyatlarda barqaror reaksiyalar beradi, ijtimoiy rollarda moslashuvchanlikni namoyon qiladi va muloqot jarayonida hissiy barqarorlikni saqlaydi.

Rus fanida «muloqot» tushunchasini «faoliyat» kategoriyasi bilan bog'lashning kuchli an'anasi mavjud. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, muloqot shunchaki faoliyatning bir shakli, uning turi sifatida qaraladi. Muloqotning barcha shakllari insonlarning qo'shma faoliyatining o'ziga xos ko'rinishlari ekanligi tan olingan. Muloqotning o'zi esa qo'shma faoliyatga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga keladigan jarayon sifatida talqin etiladi. Eng keng tarqalgan ta'riflarda («Psixologiya. Lug'at», A. Petrovskiy va M. Yaroshevskiy tahriri ostida) muloqot odamlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan ko'p qirrali jarayon bo'lib, u qo'shma faoliyatga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga keladi yoki biroz boshqacha talqinda — subyektlar o'rtasidagi belgilar vositasida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sir bo'lib, u ham qo'shma faoliyat ehtiyojlari bilan belgilanadi [4; 139].

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot nafaqat faoliyatni tashkil etish vositasi, balki emotsional ta'sir va psixologik qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, muloqotni pedagogik faoliyat doirasida faoliyatga bo'ysunuvchi ikkilamchi jarayon sifatida emas, balki o'qituvchining emotsional holati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nisbatan mustaqil psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Maktab o'qituvchilarining fan yo'nalishi ham muloqotdagi nazorat va emotsional barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Masalan, til fanlari va san'at fanlarini o'qituvchilari faol auditoriya bilan ishlash va ijodiy muloqot talab qilganligi sababli yuqori darajadagi o'z-o'zini boshqarish ko'rsatadi, aniq fanlarni o'qituvchilar esa didaktik jarayonning ko'proq texnik jihatiga bog'liq bo'lib, muloqot nazorati pastroq bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot metodikasi:** Tadqiqotda Nukus shahri 17-maktabning 30 nafar maktab o'qituvchilari ishtirok etdi. O'z-o'zini boshqarish darajasi M. Snayder sorovnomasi orqali baholandi. Natijalar uch darajaga taqsimlandi( past, o'rtacha va yuqori) va fan yo'nalishi bo'yicha tahlil o'tkazildi.

Agar tekshiriluvchi samimiy javob bergan bo'lsa, uning muloqotda o'z – o'zini boshqara olish darajasi haqida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

4 – 3 – kommunikativ nazorat sust; hulk – atvor barqaror, vaziyatga qarab o'zgara vermaydi muloqotda samimiy ravishda ko'ngildagi gapni gapirish ehtimoli yuqori: dangallik va cho'rtkesarlikning kuchli ekanligi ba'zilarga yoqmasligi mumkin.

4 – 6 – kommunikativ nazorat o'rtacha; samimiyat darajasi yuqori, lekin ba'zida hissiyotlar "jilovi" bo'sh qo'yib yuboriladi, hulk – atvorda atrofdagilarning fikrlarini inobatga olish mavjud.

7 – 10 – kommunikativ nazorat yuqori; tezlik bilan har qanday rolga kirisha olish; vaziyat o'zgarishi bilan shaxsiy hulk – atvorni osongina o'zgartirish; atrofdagilarda qanday taassurot qoldirilishini oldindan bilish.

M.Snayderning ta'kidlashicha, kommunikativ nazorat darajasi yuqori bo'lgan odamlar qaysi vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini biladilar, o'z emociyalarining ifodalanishini boshqaradilar. Biroq ular o'zlarini tabiiy tutishga qiynaladilar, voqealar rivojini oldindan payqab bo'lmaydigan vaziyatlarni hush ko'rmaydilar. Kommunikativ nazorat darajasi past bo'lgan odamlar o'zini tabiiy va ochiq tutadilar, lekin vaziyat o'zgarganda, yangi vaziyatga moslashishda qiynaladilar.

**1-jadval. Snaydernig Muloqotda o'zini o'zi boshqarish darajasi (Original variant)**

| Daraja      | Ball     | O'qituvchilar | Foiz  | Fanlar                                                                                                   |
|-------------|----------|---------------|-------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Past daraja | 3-4 ball | 4 nafar       | 13.3% | Fizika ,Bochlang'ish talim(2),Ingliz tili                                                                |
| O'rta       | 4-6      | 14 nafar      | 46,6% | O'zbek tili(2), Chizish, Bochlang'ish ta'lim(4) Musiqa,Biologiya(3), Ingliz tili, Kimyo, Qaroqolpoq tili |
| Yuqori      | 7-10     | 12 nafar      | 40%   | Qaroqalpoq tili(3), Kimyo, Geografiya, Ingliz tili(4), O'zbek tili, Biologiya,Tarix                      |

**2-jadval. Snayder metodikasining Modifikatsiya qilingan variant**

| Daraja      | O'qituvchilar soni | Foiz  | Fanlar                                                        |
|-------------|--------------------|-------|---------------------------------------------------------------|
| Past daraja | 6 nafar            | 20%   | Fizika,Kimyo,Geografiya, Ingliz tili(2) , Bochlang'ish ta'lim |
| O'rta       | 10 nafar           | 33,3% | O'zbek tili(2) Bochlang'ish talim (3)                         |

|        |          |       |                                                                                                |
|--------|----------|-------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yuqori | 14 nafar | 46,6% | Qaroqalpoq tili(3), Chizish ,Tarix, Ingliz tili(6) O'zbek tili, Bochleng'ish ta'lim, Biologiya |
|--------|----------|-------|------------------------------------------------------------------------------------------------|

## I. ORIGINAL VARIANT BO'YICHA PSIXOLOGIK TAHLIL

Snayderning original metodikasi natijalari o'qituvchilarning muloqot jarayonida o'z-o'zini boshqarish darajasi past (13,3%), o'rtacha (46,6%), va yuqori (40%) guruhlarga taqsimlanganini ko'rsatdi. Natijalar maktab pedagogik jamoasining muloqotdagi hissiy barqarorligi o'rtacha darajadan yuqori ekanini anglatadi.

### 1. Past daraja (13,3%) — 3–4 ball

Past darajadagi o'qituvchilarda quyidagi psixologik xususiyatlar kuzatilishi mumkin: **hissiy reaktivlikning** yuqoriligi, **impulsiv** javob;

1.Odamning his-tuyg'ulari juda tez qo'zg'aladi, kichik vaziyatlarga ham kuchli reaksiya qiladi.

Masalan: biroz tanbeh eshitsa ham darrov xafa bo'lib qolish, ovoz ko'tarilsa darrov qo'rqib yoki jahli chiqib ketish.

Psixologiyada bu holat emotsional qo'zg'aluvchanlik deb yuritiladi. Ya'ni, shaxsning tashqi stimullarga (gap, holat, bosim, salbiy izoh) nisbatan tez va kuchli ehtirosli javob berishi.

Bunday odamlarda asab tizimining reaksiyasi tezroq bo'ladi.

2. "Impulsiv javob" — O'ylab o'tirmasdan, tezda, shoshilinch javob berish yoki harakat qilish.

Masalan: kimdir gapini tugatmasdan javob qaytarish, o'ylamasdan keskin gap chiqib ketishi.

Impulsivlik — bu kontrol mexanizmining vaqtincha pasayishi, shaxsning fikrlab, tahlil qilib javob berish o'rniga bir zumda avtomatik va reaktiv javob berishi.

Bu holatda: nazorat markazi sust ishlaydi, emotsiya fikrdan oldin ishga tushadi, shaxs o'z xulqini boshqarishga ulgura olmaydi, kommunikativ vaziyatlarda o'zini tuta olmaslik; ijtimoiy vaziyatlarda o'zini nazorat qilishi sekinroq; vaziyat talabi o'zgarsa, muloqotga moslashish qiyinroq bo'ladi.

Fanlar tarkibi (fizika, ingliz tili, boshlang'ich ta'lim) shuni ko'rsatadiki, bu o'qituvchilarda muloqotning emotsional komponenti sustroq, ish jarayoni ko'proq texnik–didaktik yo'nalishda bo'lgani uchun, kommunikativ moslashuvchanlikda cheklovlar bo'lishi mumkin.

**2. O'rtacha daraja (46,6%) — 4–6 ball** .Bu guruh o'qituvchilarida muloqot jarayonida o'z-o'zini boshqarish barqaror, lekin situativ qiyinchiliklar mavjud: oddiy vaziyatlarda muloqotni boshqara oladi, ammo konflikt yoki bosim ostida qiynalishi mumkin; ijtimoiy rollar almashinuvida sekin moslashadi; muloqot davomida emotsional reaksiyani boshqarish muayyan mashg'ulotlarni talab qiladi.

Fanlar xilma-xilligi (o'zbek tili, chizish, musiqa, kimyo, ingliz tili, biologiya va b.) pedagogik jamoaning umumiy kommunikativ ko'nikmalari salohiyatli ekanini ko'rsatadi.

### 3. Yuqori daraja (40%) — 7–10 ball

Ushbu guruhdagi o'qituvchilar:

vaziyat o'zgarganida tez moslashadi;

auditoriya, hamkasb va ota-ona bilan muloqotda barqaror;

hissiy o'zini tuta oladi va konstruktiv yondasha oladi;  
konflikt vaziyatlarda kommunikativ nazoratni yo'qotmaydi.

Ular ko'pincha til (qoraqalpoq tili, ingliz tili, o'zbek tili) va ijtimoiy fanlar (tarix) o'qituvchilari bo'lgani — bu fanlarda muloqot jarayoni faol bo'lgani uchun regulativ ko'nikmalar rivojlanganini anglatadi.

## **II. MODIFIKATSIYA QILINGAN VARIANT BO'YICHA PSIXOLOGIK TAHLIL**

Modifikatsiya qilingan natijalar bo'yicha taqsimot:

Past — 20%, o'rtacha — 33,3%, yuqori — 46,6%.

Bu variant bo'yicha yuqori darajaga chiqqanlar soni originalga nisbatan bir oz yuqoriroq bo'lib, o'lchovning yanada aniqlashtirilganligi ehtimoli mavjud.

### **1. Past daraja (20%)**

Bu guruhda original variantga qaraganda past darajadagi o'qituvchilar soni ko'proq aniqlandi. Bu modifikatsiya versiyasi past ko'rsatkichlarni aniqlashda sezgirroq ekanini bildiradi.

Psixologik jihatlar:

muloqotda o'zini tuta olmaslik, shoshilinch javoblar;  
auditoriya oldida ijtimoiy xavotir yuqoriroq bo'lishi mumkin;  
keskin vaziyatlarda emotsional taranglik kuchliroq seziladi.

Fanlar: Fizika, Kimyo, Geografiya, ingliz tili, boshlang'ich ta'lim.

Bu yo'nalishlar murakkab didaktik yuklama va dars jarayonida tartibni ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchilar tez charchash va muloqotga ortiqcha energiya sarflash holatlariga moyil bo'lishi mumkin.

### **2. O'rtacha daraja (33,3%)**

O'rtacha guruhning foizi kamaygan, bu esa modifikatsiya variantida baholash mezonlari aniqroq bo'lganini ko'rsatadi.

Psixologik tavsif:

muloqotda sezilarli o'zini tuta olish bor, ammo murakkab vaziyatlarda tebranish kuzatiladi;

ijtimoiy rollar almashuvida sekin moslashuv;

auditoriya bilan ishlash barqaror, ammo stress vaziyatlarida qo'shimcha qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Bu guruhdagi fanlar xilma-xilligi — maktab jamoasida kommunikativ ko'nikmalar umumiy darajada shakllanganini bildiradi.

### **3. Yuqori daraja (46,6%)**

Modifikatsiya variantida yuqori ko'rsatkichning oshganligi:

emotsional nazorat barqaror;

muloqotga nisbatan ishonch yuqori;

konflikt vaziyatlarni boshqarish qobiliyati yetarli darajada.

Til va san'atga yaqin fanlarning (qoraqalpoq tili, ingliz tili, chizish, tarix) yuqori ko'rsatkichlari — bu yo'nalishlarda ijodiylik, muloqot va moslashuvchanlik ko'proq talab etilishini tasdiqlaydi.

**Muhokama;** Modifikatsiya variantida yuqori daraja aniqroq ko'rsatilgan (40% → 46,6%).

Past daraja modifikatsiyada ortgan (13,3% → 20%), bu vosita past ballarni sezgirroq aniqlashini anglatadi.

Ikkala variant ham maktab jamoasida o'rtacha va yuqori darajadagi muloqot boshqaruvi ustunligini ko'rsatib turibdi.

Til fanlari o'qituvchilari doimiy ravishda eng yuqori ko'rsatkichda. Aniq fanlar o'qituvchilarida muloqotdagi hissiy boshqaruv kuchsizroq.

**Tavsiyalar:**

1. Emotsional barqarorlikni rivojlantirish  
Stressni boshqarish bo'yicha mashqlar: nafas texnikalari, muskul relaksatsiyasi.  
Dars oldidan "psixologik tayyorgarlik rituali" joriy etish.
2. Kommunikativ kompetensiyani oshirish  
Konfliktlarni konstruktiv hal qilish treninglari.  
Assertiv muloqot texnikalarini o'rgatish.
3. Kasbiy charchashni oldini olish  
Emotsional charchashni kamaytiruvchi mini-treninglar.
4. Yuqori darajadagi o'qituvchilar uchun  
Mentorlik dasturi — past darajadagi o'qituvchilar bilan tajriba almashish.  
Muloqot bo'yicha master-klasslar tashkil etish.
5. Past darajadagi o'qituvchilar uchun  
Muloqotda o'zini tutishning kognitiv-reaktiv modellarini o'rganish.

B. Olshanskiy quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: o'qituvchilarning 62,8% ish yuklamasi bo'yicha me'yordan oshib ketadi; o'qituvchilar 300 dan ortiq turdagi faoliyatni amalga oshiradilar; O'qituvchilarning atigi 14,8% o'zlarining asab tizimidan to'liq qoniqishadi va 50,3% jismoniy sog'ligidan qoniqishadi; o'qituvchi oilalarining buzilishi foizi yuqori; oilalarning 25% da erlar xotinlarining o'qituvchilik kasbiga salbiy munosabatda bo'lishadi [3 ; 83].

Ushbu ma'lumotlar o'qituvchilarning emotsional zo'riqishi real muammo ekanini tasdiqlaydi. Demak, ularning kasbiy farovonligini ta'minlash ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

**Xulosa**

M. Snayder metodikasi o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish darajasini aniqlash va tahlil qilish uchun samarali ilmiy vosita hisoblanadi. Original va modifikatsiya qilingan variantlar pedagogik jamoaning emotsional barqarorligi, muloqotdagi nazorat va ijtimoiy moslashuvchanligini ilmiy asosda ko'rsatadi. Fan yo'nalishi o'z-o'zini boshqarish darajasiga ta'sir ko'rsatadi: til va san'at fanlarida yuqori, aniq fanlarda pastroq daraja kuzatiladi. Past darajadagi o'qituvchilar uchun psixologik va pedagogik tavsiyalar ularning professional rivojlanishiga va pedagogik samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kasb psixologiyasi F. R. Abduraxmonov Z. E. Abduraxmonova Toshkent-2018
2. Muloqot psixologiyasi M. Maxsudova Toshkent- 2006
3. Педагогическая психология Москва- 2006
4. Социальная педагогическая психология Петербург-2000
5. F.I.Xaydarov , N.I.Halilova Umumiy psixologiya .Toshkent -2009
6. O.M.Кулева Эмоциональная культура как компонент профессионально-педагогической культуры вузовского преподавателя – 2007—№2.